



## 5-7-SINF O‘QUVCHILARINI XALQ OG‘ZAKI IJODI VOSITASIDA MUSIQAGA QIZIQISHINI TAKOMILLASHTIRISH METODIK MUAMMO SIFATIDA

*To‘xtasin Ibodovich Rajabov, PhD*

Buxoro davlat universiteti San‘atshunoslik fakulteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası dotsenti, p.f.f.d.

*Sabina Sayfiddin qizi Safoeva*

Buxoro davlat pedagogik institute Musiqa ta‘limi kafedrası 1- bosqich talabasi

Respublikamizda mavjud ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida bo‘lgani kabi umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida musiqa ta‘limi va tarbiyali imkoniyatlaridan keng foydalanishga qaratilgan ilmiy-tadqiqiy ishlarga tabiiy ravishda e‘tibor qaratilib kelinayotganligi diqqatga sazovordir. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar tarkibida umumta‘lim maktablari musiqa ma‘nosining o‘ziga xos faoliyat turlari bo‘yicha olib boriladigan o‘quv-tarbiyaviy ishlarning o‘ziga xos tashkiliy-uslubiy asoslarini uzluksiz takomillashtirib borish, uni dars va sinfdan tashqari faoliyatlar uyg‘unligida yo‘lga qo‘yish orqali yuqori samaradorlikka erishish masalasi ham alohida o‘rin tutadi. Ma‘lumki, umumta‘lim maktablarida o‘qitiladigan «musiqa madaniyati» fani, boshqa fanlar o‘qitilishidan o‘zining bir necha faoliyatlar negizida tashkil etilish xususiyati bilan ajralib turadi. Bu faoliyatlar tarkibida «jamo» folklor bo‘lib kuylash faoliyati alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bu faoliyatga darsning asosiy hajmi ajratiladi va asosiy maqsad o‘quvchilarni voka-xor malakalarini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Maktab musiqa ta‘limida o‘quvchilar folklor jamoalari faoliyatini sinf va sinfdan tashqari faoliyatlar uyg‘unligida muvofiqlantirish va ushbu jarayonda o‘quv-tarbiyaviy ishlarni yo‘lga quyishning yagona pedagogik va metodik tizimini ishlab chiqilmaganligi kasb etishni bildiradi.

Pedagog va psixolog olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida qo‘shiq va musiqaning shaxsni shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati kattaligi ko‘plab dalillar yordamida ko‘rsatib berilgan. Manbalarda ta‘kidlanishicha, shaxsning kamol topishida uning dunyoqarashi, ma‘naviyati, axloqi, madaniyatlilik darajasi, his-tuyg‘ularini rivojlantirishda musiqa ta‘limi alohida o‘rin tutadi.

Axloqiy tarbiyada san‘at va adabiyotning buyuk roli insonning butun hayoti jarayonida davom etadi. Bu o‘rinda san‘atni biror maktab predmeti, biror darslik bilan almashtirib bo‘lmaydi.

O‘quvchi shaxsini ma‘naviy-axloqiy shakllantirish bevosita musiqa, uning eng sharqona janri bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi orqali muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Ma‘naviy-axloqiy me‘yorlarni o‘quvchi yoshlarga singdirish uchun, eng avvalo, ularni ma‘naviy-axloqiy tushunchalar bilan tanishtirish lozim bo‘ladi. Faylasuf hamda pedagog olimlar fikriga tayanib, ma‘naviy-axloqiy tushunchalarni quyidagi uch guruhga bo‘lish mumkin:

- 1) ma‘naviy-axloqiy tushunchalarni bayon qilish;
- 2) ma‘naviy-axloqiy fikr yuritish;
- 3) ma‘naviy-axloqiy xulosalar chiqarish va bu xislatlarni odat tusiga kiritish.

Ma‘naviy-axloqiy me‘yorlar saxiylik, oqko‘ngillilik, yaxshilik, hurmat, xayrixohlik, ma‘suliyatlilik, mehnatsevarlik kabi atamalarning mazmunini bilib olish, o‘z faoliyatida unga



amal qilishni anglatadi.

Forobiy musiqa ilmini keltirib chiqargan sabablar xususida yozar ekan, musiqaning axloqiy tarbiyaviy jihatlariga diqqatni jalb etadi. «Bu ilm shu ma'noda foydaliki,-deb yozadi u «Ixxo al-ulum» asarida-u o'z muvozanatini yo'qotgan (odamlar) xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo'lsa, ruh ham so'ladi, tana to'siqqa uchrasa, ruh ham to'siqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarning ta'siri bilan ruhni sog'aytirish yordamida tana sog'aytiriladi, ruh esa o'z kuchlarining tartibga solinishi va substansiyasiga moslashtirilishi orqali sog'ayadi»

Ma'naviy-axloqiy tushunchalarning mohiyatini aniq his qilish uchun u yoki bu holatda barcha unga amal qilishi hamda uning natijasi qanday yakun topganligini sinchkovlik bilan kuzatib, fikr yuritishi va o'zining shaxsiy xulosasini chiqarib olishi lozim.

Ma'naviy-axloqiy me'yorlarni ta'lim jarayonida chuqur o'zlashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunda ayniqsa, musiqa ta'limi katta imkoniyatlarga ega.

Ma'naviy-axloqiy me'yorlar ko'p bor sinovdan o'tkazilgandagina barqarorlik kasb etadi va u kishining haqiqiy tayanchi sifatida uning hayotiy xatti-harakatlariga turtki beradi. Uning qay holatda qanday ish tutish kerakligini aniq ko'rsatadi.

Xalq qo'shiqlarida berilgan fikrlar va ohanglarda qaror topgan da'vatlar, nasihatlar, ko'rsatmalar uning asrlar davomida orttirgan tajribasi natijasida qayta tekshirilib, sayqal topib kelgan hayotiy xulosalari mahsulidir. Xalqning har bir aytgan gapi «o'q» va uni uqib olmagan kishi hayotda pand yeyishi tabiiydir.

Ma'naviy-axloqiy tushunchalarni bilib olish kundalik turmushda sodir bo'ladigan turli voqealar va psixologik holatlarga taqqoslab ko'rish natijasida mukammal shakllangan odatlar, ko'nikma va malakalar hosil bo'la boshlaydi.

O'quvchilarning umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tkazgan davri davomida sinf, maktab jamoasi, oila, mahallada o'z o'rnini topa olishida musiqa ta'limi alohida o'rin tutadi. Aniq mazmun asosida o'tkaziladigan musiqa darslari, sinfdan tashqari mashg'ulotlar va umumiy tarzdagi musiqiy muhit o'quvchilarning ma'naviyatini shakllantirish uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa darslarining haqiqiy ta'lim-tarbiya vositasiga aylanishida o'qituvchisining bilimi, iqtidori, jonkuyarligi, targ'ibotchiligi, mehribonligi, maslahatgo'yiligi yetakchi ahamiyatga ega.

Musiqaning buyuk qudrati shundaki, u o'quvchining ichki dunyosiga kirib, hissiyotlarini junbushga keltira oladi. Psixolog olimlarning ta'kidlashicha, musiqa inson bosh miyasining yarim sharlaridagi asab to'rlarining eng yirik, eng nozik, boshqa hech qanday vosita ta'sir etolmaydigan qatlamiga ham kirib bora oladi. Bu qatlamlarda insonning juda katta quvvati zahiralari saqlanadi va yaxshi musiqa aynan shu aqliy quvvat, hissiyot zahiralari harakatga keltira oladi. Xalq og'zaki ijodi o'zbek xalqining avloddan-avlodga o'tib qon-qoniga singib ketgan san'at turidir va shuning uchun ham xalq ohanglari, nola-qochirimlari va boshqa milliy bezaklarini tinglagan odam unga befarq bo'la olmaydi, bevosita unga ergashadi, qo'shilishib kuylaydi, raqsga tushadi, ya'ni musiqa uni o'zining sehrli olamiga yetaklab ketadi.

Xalq og'zaki ijodifaqat estetik joziba olami bo'libgina qolmay o'ziga xos katta bir ta'lim-tarbiya quroli hamdir. Chunki inson his-hayajonining zamirida ma'naviy-axloqiy tushunchalar, hislar, xulosalar ham yotadi.



Buyuk alloma Abdurahmon Jomiy musiqaning xilma-xilligi inson ma'naviy ehtiyojlarining ifodasi ekanligini, ikkinchidan, estetik lazzat va huzur orqali inson, o'z navbatida, ma'naviy barkamol bo'lishini ta'kidlaydi. Musiqa misolida Jomiy e'tirof etadiki, «Ruhga lazzat biror narsani tushunib, bilib olmoqdan keladi. Nimaiki ruh tomonidan tez idrok etilsa va uni hayratga, chuqur o'ylashga majbur etsa, u eng lazzatli hisoblanadi» Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari hayotida musiqa san'ati muhim o'rin tutadi, ularda musiqaga bo'lgan qiziqish shu yoshlarda nihoyat darajada intensiv kechadi, ularning anchagina vaqtini egallaydi va bu o'z-o'zidan ularning intellektual, estetik va ma'naviy olamini boyitishga, rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarning aynan shu musiqani yoqtiradigan, uni sevib o'rganadigan maktab yoshi davrida ularni xalq qo'shiqlarining go'zallik olamiga olib kirish, nolalar, bezaklar, qochirimlar, ijrochilik mahoratlaridan bahramand qilish va ularni o'z ona xalqining musiqa bisotini qadrlashga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda ularning harakatga, fidoiylikka, jonbozlikka, sarguzashtlarga boy hayotini mantiqsiz hayot ishqibozligi, yengil-yelpi musiqiy ohanglar egallashi mumkin.

Yosh avlodning musiqiy qobiliyatini o'stirishda ularning musiqaga bo'lgan qiziqishini shakllantirish va musiqani hissiy qabul qilishga yo'naltirish eng asosiy omil hisoblanadi. Qiziqish, mashg'ullik muammosi-pedagogikaning fundamental muammolaridan biri bo'lib, uning to'g'ri hal qilinishi har qanday fan bo'yicha mashg'ulotlarni muvaffaqiyatli olib borish uchun muhimdir. Lekin u san'at sohasida alohida ahamiyat kasb etadi, hissiyot va qiziqishsiz qancha kuch va vaqt sarf qilinmasin eng oddiy natijalarga ham erishib bo'lmaydi.

Qiziqish bolalarning ehtiyojiga aylansa, ularning diqqat e'tibori va fikrini jamlashga katta imkon beradi. O'quvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlarini bilish musiqa ta'limida pedagogik ta'sir ko'rsatishning muhim quroli hisoblanadi. Musiqaga bo'lgan qiziqishning muhim xususiyatini xuddi shu musiqa bilan muloqotga kirishish, uning go'zalligidan bahramand bo'lish orqali o'z ehtiyojini qondirishdan iboratdir.

O'quvchilarning musiqaga bo'lgan ehtiyojini qondirishda san'at ahlining o'rni beqiyosligi shundaki, ular go'daklikdan boshlab shu musiqalarning og'ushida o'sib katta bo'lishgan va bu musiqalar ularning qon-qoniga singib ketgan. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodi bola uchun yoqimli va jozibali tuyuladi.

Xalqning qo'shiqchilik ijodiyoti, ya'ni xalq og'zaki ijodiuning o'ziga xos «ohangdor-hissiy» tili hisoblanadi. Bu ohang va his-hayajonlar ro'y bergan hayotiy voqealarning mazmuniga chuqurroq yetib borish uchun sharoit yaratib beradi. Badiiy asarlarda ifodalangan hissiyot va kechinmalar, eng avvalo, o'z qalbidagi holatni boshqa kishilarga yetkazish, boshiga og'ir kunlar tushganda achinish, mehnat qilganda hamjihatlik ko'rsatish, umumiy kayfiyatni mustahkamlash, birga xursand bo'lish, yo'qotishlarda birga hasrat chekish kabi umuminsoniy fazilatlarini mustahkamlash uchun zarurdir.

Musiqiy folklor orqali o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning muhim shartlaridan biri-ulardagi tabiatan berilgan musiqiy qobiliyatning mavjudligidir.

O'quvchilardagi musiqiy qobiliyatni shartli ravishda ikki turga bo'lish mumkin:

1. Maxsus qobiliyat-o'quvchilarning musiqa ixtisosligiga bo'lgan qiziqishi, musiqa bilan shug'ullana olish ko'nikmasi. Bunga o'zaro bir-biri bilan mustahkam bog'langan va o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini mujassamlashtiruvchi, ularning musiqiy qobiliyatini belgilovchi, tovushlarning baland-pastligini his qilish, lad va tonallikni



seza olish, usul, metr-ritmni aniqlay olish hamda musiqiy xotira (ma'lum musiqa bo'laklarini yoki ritm tizimlarini yodda saqlab, uni qaytadan aytib bera olish qobiliyati) kabilar kiradi.

2. Musiqaga oid estetik qobiliyat-bu, o'z navbatida, musiqiy idrokning ikki muhim qirrasini o'zida mujassamlashtiradi:

a) hissiy bilish;

b) unumli bilish.

Hissiy idrok har bir o'quvchining musiqaga ta'sirchanligi, go'zalligi, tashbehlarga boyligi, hayotiy voqealarni o'z qamroviga sola olishiga bo'lgan xususiy munosabatidan kelib chiqadi.

Unumli bilish musiqani idrok qilish orqali o'quvchining o'zini o'rab turgan muhit va hayot haqida uning uchun yangilik bo'lgan xabar, bilimlarni egallashga erishishdan iborat.

O'quvchilarning musiqa asarlaridan oladigan unumli malumotlari to'laqonli, mantiqli, ta'sirchan bo'lishi uchun ular o'zlashtiradigan hissiy ma'lumotlarni mustahkamlash zarur bo'ladi. Ayni paytda asarning hissiy tafsilotlari bilan o'ralashib qolgan holda unumdorlikka e'tibor bermaslik ham kutilgan natijaga erishmaslikka olib keladi. Shuni hisobga olgan holda o'quvchilarga o'rgatiladigan xalq qo'shiqlarining musiqiy bezagi, undagi nola va qochirimlardan unumli foydalangan holda asarni xalq an'analari, udumlari va turli marosimlar bilan uzviy bog'liq holda o'quvchilarga singdirish lozim.

Musiqiy xalq qo'shiqlarining ta'sirchanligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri-uning o'quvchilar hissiyotiga kuchli ta'sir qila olishidir. Mazkur asarlarni hissiy idrok qilish har qanday bilish jarayonining asosini tashkil qiladi. Musiqaning yuksak darajada emotsionalligi, uning inson hissiyotlari va kechinmalariga samarali, kuchli va chuqur ta'sir eta olish imkoniyati mavjud.

Xalq og'zaki ijodi badiiy-estetik tafakkur ma'naviy-axloqiy fazilatlarining muhim belgisi hisoblanadi. Badiiy so'z, epchil va chaqqon harakatlar, pantamimo, imo-ishoralar, tovushlarning ohangdorligi va cholg'u sozlarining musiqiy jozibadorligi (ud, do'mbira, nay, g'ijjak, garmon, doira, rubob, chang, qo'biz, chanqovuz, bo'lamon va b.) badiiy-estetik tafakkurni shakllantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Badiiy-estetik an'analar tarixiy hodisa bo'lib, Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi ming yilliklarda ajdodlarimizning badiiy tafakkur mahsullari, asotir, afsona, rivoyat, maqol, matal, alla, dostonlar vujudga kelgan. Unda xalqning ezgu niyatlari, orzu armonlari, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, an'analari o'z aksini topgan.

Demak, ma'naviy-axloqiy fazilat kabi uning negizini tashkil etadigan moddiy-ma'naviy qadriyatlar ham tarixiy hodisalar sifatida xalq uchun xos xususiyat ustoz va shogird an'anasi bo'lib, qachonlardir xalq tomonidan ehtiyoj asosida yaratilgan, hayot sinovidan o'tgan, ustozdan shogird, avlod-dan-avlod, ota-onadan farzandga o'tib izchillik, davomiylik etib kelmoqda.

Xalq og'zaki ijodida ifodalangan ta'lim-tarbiya usullari: buyruq, o'git, nasihat, namuna, o'rnak, murojaat, iltijo, kinoya, piching, kesatiq, yumshoq zaharxanda, yumoristik tanqid, ma'qullash; olg'a surilgan tarbiyaviy g'oyaning ta'sir kuchini oshirishga qaratilgan poetik vositalar: mubolag'a, o'xshatish; sifatlash, bo'rttirish, mimika, pantamimo, metonimiya, metafora, didaktik tamoyillar, ta'lim-tarbiyada ko'rgazmalilikka rioya etish, nazariyaning amaliyot bilan birligini ta'minlash, ijobiy fazilatlariga tayanib salbiylarini bartaraf etish; ta'lim-tarbiya vositalari, badiiy-estetik manbalar, maxsus uyushtirilgan dramatik holat, ilg'or tajribalarga murojaat, musiqa asboblari, madaniy buyumlardan ta'lim-tarbiya maqsadida foydalanish o'quvchilarning



ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish uchun ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Asta-sekin kattalarning bolalarga aytganlari ertaklar, allalar, ermaklar, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar shaklida to'planib, ular uchun kattagina og'zaki badiiy adabiyot va san'at vujudga kelganki, uning ta'sirida o'quvchilarning ma'naviy dunyosi shakllanib borgan. Bolalar ermaklari, o'yinlari, qo'shiqlari, o'z navbatida, ularning xatti-harakatlari uchun ham poydevor hozirlaydi. Bolalar o'z harakatlari, mashg'ulotlarida kattalarga taqlid qiladilar, tezroq ulg'ayishni orzu qiladilar.

O'quvchilarni yoshligidayoq foydali ishlarga o'rgatish o'yin, qo'shiq, mashg'ulotlar orqali bo'lsa-da, ularni jamoaning munosib a'zosi qilib o'stirish, faoliyatini jamiyat uchun foydali ishga yo'naltirishning nazariy asoslari, usul va metodlarini aniqlash pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biridir.

Xalq og'zaki ijodi bolalarda eng yaxshi insoniy fazilatlar: vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, odamlarga ishonch, do'stlarga sadoqat to'yg'ulari va uning o'z-o'ziga nisbatan talabchanligini shakllantiradi. Xalq og'zaki ijodio'quvchilar uchun ilk tarbiya darsligi, ma'naviy-axloqiy boyliklarning bitmas-tuganmas xazinasidir. Bolalarga mo'ljallab yaratilgan og'zaki ijod namunalari xalqning ming yillar mobaynida yosh avlodni tarbiyalashda xizmat qilib kelgan buyuk pedagogik merosidir. Xalq og'zaki ijodivositasi 1-7-sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish jarayonini o'rganib chiqish nihoyasida biz ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning konseptual psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini aniqladik:

1. Xalq asarlarining ma'naviy-axloqiy jihatlarini idrok qilish quyidagi uch tamoyil asosida amalga oshiriladi:
  - a) o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tushunchalar hosil qilish;
  - b) asarlarning ma'naviy-axloqiy mazmuni haqida fikr yuritish;
  - v) asarlardagi hayotiy voqelik va holatlarni tahlil qilish orqali xulosalar chiqarish.
2. Amalga oshirilgan kuzatish va o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy shakllantirish, eng avvalo, ularning xalq qo'shiqlariga qiziqishlari, ularni amaliy estetik-axloqiy jihatdan tahlil qila olishlari orqali amalga oshiriladi hamda dars davomida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hissiy holatlardan foydalanish, intellektual ta'sir o'tkazish va musiqiy idrokni kuchaytirish ham o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.
3. O'quvchilarga xalq qo'shiqlarini o'rgatish jarayonini ma'naviy-axloqiy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.
4. Xalq og'zaki ijodiva ular ijrosini baholash o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish bilan uyg'unlikda amalga oshirilishi lozim.
5. 1-7-sinf o'quvchilar xulqiga ma'naviy-axloqiy me'yorlarni singdirishda ularning uyushqoqligi, maslakdoshligi, birdamligi kabi xislatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi kerak.
6. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy shakllantirish jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlashda sinfda yaxshi ijodiy muhit, do'stona munosabat o'rnatish.
7. Bunda repertuar tanlashga alohida e'tibor berish.
8. Musiqa mashg'ulotlarini yuqori saviyada o'tkazish va hokozalar alohida ahamiyatga ega.





Yuqorida keltirilgan fikrlardan ayon boʻladiki, xalq ogʻzaki ijodivositasida oʻquvchilarni maʼnaviy-axloqiy shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida oʻz yechimini kutmoqda.

### Adabiyotlar

1. Ражабов Т. И. Этическая классификация узбекской детской народной музыки и игр //Наука, образование и культура. – 2020. – №. 3 (47).
2. Ражабов Тухтасин Ибодович, and Уктам Расулович Ибодов. "Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки." *Вестник науки и образования* 21-2 (99) (2020): 55-58.
3. Ражабов Т. И. (2021). Эстетическое воспитание учащихся-молодежи на основе образцов узбекского национального музыкального фольклора. *Science and Education*, 2(11), 1094-1103.
4. Rajabov T. X. I., & Ibodov, O. R. (2021). Узбекская Народная Музыка Как Средство Патриотического Воспитания Учащихся В Наследии. *Онлайн-научный журнал инноваций в социальных науках*, 1(6), 139-145.
5. Ражабов, Т. И., & Ибодов, У. Р. (2020). Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки. *Вестник науки и образования*, (21-2 (99)), 55-58.
6. Ражабов Т. И. (2020). Этическая классификация узбекской детской народной музыки и игр. *Наука, образование и культура*, (3 (47)).
7. Ражабов Тухтасин Ибодович. "Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников." *Вестник науки и образования* 5-2 (83) (2020).
8. Ражабов Тухтасин Ибодович. "Этическая классификация узбекской детской народной музыки и игр." *Наука, образование и культура* 3 (47) (2020).
9. Ражабов Тухтасин Ибодович. "УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ОБУЧЕНИЯ БУХАРСКИМ ДЕТСКИМ ФОЛЬКЛОРНЫМ ПЕСНЯМ В СРЕДНЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ." *Наука, техника и образование* 2-2 (77) (2021): 84-86.
10. Раджабов Тухтасин Ибодович. "Описание вековых ценностей в песне" туговое дерево-балх" и его место в воспитании учащейся молодежи." *Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития*. 2019.
11. Раджабов Т. И. Описание вековых ценностей в песне" туговое дерево-балх" и его место в воспитании учащейся молодежи //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 70-71.
12. Раджабов Тухтасин Ибодович. "Описание вековых ценностей в песне" туговое дерево-балх" и его место в воспитании учащейся молодежи." *Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития*. 2019.
13. Ражабов Д. З., & Ражабов, Т. И. (2018). Формирование и развитие узбекской народной лирики. In *Международная образовательная деятельность как фактор развития и*



- сотрудничества высших учебных заведений в современном поликультурном мире* (pp. 207-212).
14. Ражабов Т. И. Эстетическое воспитание учащихся-молодежи на основе образцов узбекского национального музыкального фольклора // *Science and Education*. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1094-1103.
  15. Rajabov T. I., Ibodov O. R. Узбекская Народная Музыка Как Средство Патриотического Воспитания Учащихся В Наследии // *Онлайн-научный журнал инноваций в социальных науках*. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 139-145.
  16. Ражабов Т. И. Этическая классификация узбекской детской народной музыки и игр // *Наука, образование и культура*. – 2020. – №. 3 (47).
  17. Ражабов Тухтасин Ибодович, and Уктам Расулович Ибодов. "Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки." *Вестник науки и образования* 21-2 (99) (2020): 55-58.
  18. Ражабов Тухтасин Ибодович, and Уктам Расулович Ибодов. "Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки." *Вестник науки и образования* 21-2 (99) (2020): 55-58.
  19. Ражабов Тухтасин Ибодович. "Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников." *Вестник науки и образования* 5-2 (83) (2020). Ражабов, Тухтасин Ибодович. "Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников." *Вестник науки и образования* 5-2 (83) (2020).
  20. Ражабов Т. И. Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников // *Вестник науки и образования*. – 2020. – №. 5-2 (83).
  21. Ражабов Т. И. УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ОБУЧЕНИЯ БУХАРСКИМ ДЕТСКИМ ФОЛЬКЛОРНЫМ ПЕСНЯМ В СРЕДНЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ // *Наука, техника и образование*. – 2021. – №. 2-2 (77). – С. 84-86.
  22. Ражабов Т. И. УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ОБУЧЕНИЯ БУХАРСКИМ ДЕТСКИМ ФОЛЬКЛОРНЫМ ПЕСНЯМ В СРЕДНЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ // *Наука, техника и образование*. – 2021. – №. 2-2 (77). – С. 84-86.
  23. Rajabov T. I., Ibodov O. R. Узбекская Народная Музыка Как Средство Патриотического Воспитания Учащихся В Наследии // *Онлайн-научный журнал инноваций в социальных науках*. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 139-145.
  24. Ражабов Тухтасин Ибодович. ""Эстетическое воспитание учащихся-молодежи на основе образцов узбекского национального музыкального фольклора."" *Science and Education* 2.11 (2021): 1094-1103.
  25. Rajabov T. I., Oripov N. O. Teaching Folklore Songs Bukhara Children in Continuous Education as a 25.Dolzarb Methodological Problem // *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 409-412.



26. Rajabov Tokhtasin Ibodovich, and Mahliyo Feruzovna Rutamova. "The Formation of the Spiritual and Moral Qualities of Students through Folk Songs in Continuing Education is an Urgent Pedagogical Problem." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 2.2 (2022): 404-408.
27. Ражабов Т. И. Фактор формирования национального мышления у школьников-молодежи через народные песни // Онлайн научный журнал "Устойчивость и ведущие исследования". – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 364-368.
28. Раджабов Тухтасин Ибодович и Нигина Одиловна Орипова. «Обучение фольклорным песням бухарских детей в системе непрерывного образования как долзарбская методическая проблема». *ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ* 2.2 (2022): 409-412.
29. Раджабов Т.И. Рустамова М.Ф. (2022). Формирование духовно-нравственных качеств учащихся через народные песни в системе непрерывного образования является актуальной педагогической проблемой. *ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ* ,
30. Раджабов Тухтасин Ибодович и Джахонгир Ихтиёрович Раджабов. «Формирование духовно-нравственных качеств учащихся через народные песни – актуальная педагогическая проблема». *ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ* 2.1 (2022): 331-335.
31. Раджабов Т.И. СПЕЦИФИЧЕСКИЕ СТИЛИ ИСПОЛНЕНИЯ НАРОДНЫХ ПЕСЕН В НЕПРЕРЫВНОМ ОБРАЗОВАНИИ //Научный прогресс. – 2021. – Т. 1. – №. 5.
32. Раджабов Тухтасин Ибодович. " СПЕЦИФИЧЕСКИЕ СТИЛИ ИСПОЛНЕНИЯ НАРОДНЫХ ПЕСЕН В НЕПРЕРЫВНОМ ОБРАЗОВАНИИ." *Научный прогресс* 1.5 (2021). Раджабов Токстасин Ибодович. " СПЕЦИФИЧЕСКИЕ СТИЛИ ИСПОЛНЕНИЯ НАРОДНЫХ ПЕСЕН В НЕПРЕРЫВНОМ ОБРАЗОВАНИИ." *Научный прогресс* 1.5 (2021).
33. Раджабов Т. Воспитательное значение народных песен в начальных классах //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 1. – №. 01. – С. 72-79.
34. Ражабов Т. И. (2022). Фактор формирования национального мышления у школьников-молодежи через народные песни. Онлайн научный журнал "Устойчивость и ведущие исследования", 2 (1), 364-368.  
 Shamsiev, Sherzod Istamovich. "The role of folk songs in educating student's role of folk songs in student education."
35. Ражабов Т. И. (2021). Эстетическое воспитание учащихся-молодежи на основе образцов узбекского национального музыкального фольклора. *Science and Education*, 2(11), 1094-1103.  
 Ibodov O. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАРОДНЫХ ПЕСЕН НА УРОКАХ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.
36. Ражабов Т. И. Этическая классификация узбекской детской народной музыки и игр //Наука, образование и культура. – 2020. – №. 3 (47).
37. Ражабов, Тухтасин Ибодович. "Этическая классификация узбекской детской народной музыки и игр." *Наука, образование и культура* 3 (47) (2020).





38. Ражабов Д. З., & Ражабов, Т. И. (2018). Формирование и развитие узбекской народной лирики. In *Международная образовательная деятельность как фактор развития и сотрудничества высших учебных заведений в современном поликультурном мире* (pp. 207-212).
39. Ражабов Т. И. УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ОБУЧЕНИЯ БУХАРСКИМ ДЕТСКИМ ФОЛЬКЛОРНЫМ ПЕСНЯМ В СРЕДНЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-2 (77). – С. 84-86.
40. Ражабов, Тухтасин Ибодович. Фактор формирования национального мышления у школьников-молодежи через народные песни. *Онлайн научный журнал "Устойчивость и ведущие исследования"* 2.1 (2022): 364-368.
41. Ражабов, Т. И. (2021). Эстетическое воспитание учащихся-молодежи на основе образцов узбекского национального музыкального фольклора. *Science and Education*, 2(11), 1094-1103.
42. РАЖАБОВ Т. И. МОДЕЛЬ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ФОРМИРОВАНИЯ УЧАЩИХСЯ СРЕДСТВАМИ БУХАРСКИХ ДЕТСКИХ НАРОДНЫХ ПЕСЕН НА УРОКЕ МУЗЫКИ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ //ЭКОНОМИКА. – С. 138-141.
43. Ражабов, Тухтасин. " Правовые основы организации деятельности учреждений культуры и искусства." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 8.8 (2021).
44. Rajabov, T. X. I., & Ibodov, O. R. (2021). Узбекская Народная Музыка В Наследии-Средство Патриотического Воспитания Учащихся. *Интернет-научный журнал инноваций в социальных науках*, 1(6), 139-145.